Bank kapitali kredit tashkilotining kutilmagan yo'qotishlarni o'z zimmasiga olish qobiliyatini belgilovchi asosiy moliyaviy resurs hisoblanadi. Kapitallashuv darajasi nafaqat alohida bankning to'lov qobiliyatini, balki butun bank tizimining tashqi shoklarga chidamliligini, iqtisodiyotni kreditlash salohiyatini va moliyaviy vositachilik xarajatlarini ham belgilaydi. Bazel III standartlari doirasida kapitalga qo'yilgan talablarning kuchaytirilishi bank kapitalining miqdoriy jihatidan bir qatorda, uning sifati va shakllanish manbalari barqarorligi masalasini ham dolzarb qilib qo'ydi.

O'zbekiston bank sektorida so'nggi besh yilda kapitallashuv masalasi alohida ahamiyat kasb etdi. "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi"da davlat ulushi yuqori bo'lgan banklarni transformatsiya qilish, ularni xususiylashtirishga tayyorlash va kapitalning bozor mexanizmlari asosida shakllanishiga o'tish vazifalari belgilangan. Amaldagi tartibga solish talablariga muvofiq, banklar uchun kapital yetariligi koeffitsientining eng kam darajasi 13 foiz, birinchi darajali kapital koeffitsienti esa 10 foiz etib belgilangan. Biroq belgilangan me'yorlarga rasmiy rioya etish kapitallashuvning sifatini to'liq tavsiflamaydi: kapital ustav jamg'armasiga davlat yoki aksiyadorlar tomonidan kiritilgan mablag'lar hisobidan ham, bankning o'z faoliyati natijasida olingan taqsimlanmagan foyda hisobidan ham oshirilishi mumkin. Birinchi holatda kapitallashuv tashqi qo'llab-quvvatlashga bog'liq va shu ma'noda mo'rt bo'ladi, ikkinchi holatda esa u bankning barqaror biznes modeliga tayanadi.

Aynan shu yerda daromadlar barqarorligi masalasi kapitallashuv bilan bevosita bog'lanadi. Nazariy jihatdan, daromadlari barqaror bank taqsimlanmagan foyda hisobidan kapitalni izchil oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi va tashqi moliyalashtirish manbalariga kamroq murojaat qiladi. Aksincha, foydasi yuqori volatillikka ega bank uchun ichki kapitallashuv oqimi uzluksiz bo'lmaydi va kapital yetariligi me'yorlarini saqlab qolish uchun aksiyadorlardan qo'shimcha resurs jalb etish zaruriyati yuzaga keladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bank kapitali strukturasi nazarida asoslari F. Modigliani va M. Millerning kapital strukturasi to'g'risidagi klassik ishlaridan boshlanadi. Ular mukammal bozor sharoitida kompaniya qiymati kapital strukturasi bog'liq emasligini asoslagan bo'lsalar-da, keyingi tadqiqotlar soliq, bankrotlik xarajatlari va axborot asimmetriyasi mavjud bo'lgan real sharoitda bu neytrallik buzilishini ko'rsatdi. S. Myers va N. Majluf tomonidan ishlab chiqilgan "iyerarxiya nazariyasi" (pecking order theory) kompaniyalar moliyalashtirish manbalarini tanlashda avvalo ichki manbalarga — taqsimlanmagan foydaga — tayanishini, tashqi kapital jalb etish esa eng qimmat va oxirgi variant ekanligini asoslaydi. Bank sektoriga tatbiq etilganda, bu nazariya daromadlari barqaror banklar kapitalni asosan foyda hisobidan oshirishini taxmin qilishga imkon beradi.

D. Diamond va R. Rajan bank kapitalining o'ziga xos vazifasini — likvidlik yaratish va kredit portfelining sifatini nazorat qilish o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashni asoslab berdilar. A. Berger, R. Herring va G. Szego bank kapitalining tartibga soluvchi me'yorlardan yuqori darajada saqlanishining sabablarini tahlil qilib, banklar o'z kapitallarida "bufer" saqlashini va bu bufer hajmi daromadlarning kutilayotgan o'zgaruvchanligiga bog'liq ekanligini ko'rsatdilar. M. Flannery va K. Rangan, shuningdek, A. Berger va uning hammualiflari yirik bank tashkilotlari kapital koeffitsientlarini faol boshqarishini, maqsadli darajadan chetlanish yuzaga kelganda uni asosan taqsimlanmagan foyda va dividend siyosati orqali tuzatishini empirik tasdiqladilar. R. Gropp va F. Heider bank kapitali strukturasi aniqlovchi omillari nomoliyaviy kompaniyalarnikiga o'xshashligini, ya'ni rentabellik va bank hajmi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini aniqladilar.

Daromadlar barqarorligi muammosi alohida tadqiqot yo'nalishi sifatida shakllangan. R. DeYoung va K. Roland banklar daromadlari tarkibida foizsiz daromadlar ulushining oshishi foyda volatilligini kuchaytirishini ko'rsatdi. K. Stiroh AQSh banklari misolida daromadlarni diversifikatsiyalash har doim ham risk bilan tuzatilgan natijani yaxshilamasligini asosladi. M. Kohler Yevropa banklari uchun daromad tarkibi va bank biznes modeli o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilib, chakana biznes modeliga tayangan banklarda daromadlar barqarorroq ekanligini aniqladi. A. Demircuc-Kunt va H. Huizinga esa moliyalashtirish strategiyasi va daromad tarkibining bank riski hamda natijaviylikka ta'sirini xalqaro kesimda baholadilar.

Kapital va risk o'rtasidagi bog'liqlikni baholashda Z-indeksi keng qo'llaniladi: u bankning kapital buferi va rentabellik darajasining foyda volatilligiga nisbatini ifodalaydi hamda L. Laeven va R. Levine ishlarida bank riskining asosiy o'lchovi sifatida ishlatilgan. Ushbu yondashuv daromad barqarorligi va kapitallashuv o'rtasidagi bog'liqlikni bir ko'rsatkichda birlashtirishga imkon beradi.

Mahalliy iqtisodiy adabiyotda bank kapitallashuvi ko'proq tartibga soluvchi me'yorlarga rioya etish va kapital hajmini oshirish zarurati nuqtai nazaridan o'rganilgan. Biroq kapitallashuv darajasining daromadlar barqarorligi bilan o'zaro bog'liqligi, xususan, kapital o'sishida ichki va tashqi manbalar nisbatining daromad volatilligiga bog'liqligi empirik jihatdan yetarlicha tadqiq etilmagan. Ushbu maqola shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning empirik bazasini O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining 2020–2024-yillar yakuni holatidagi moliyaviy ko'rsatkichlari tashkil etadi. Ma'lumotlar "Ahbor-Reyting" reyting agentligining bank sektori bo'yicha analitik sharhlarida e'lon qilingan renkinglardan (aktivlar, o'z kapitali, sof foyda bo'yicha) olindi. Namunaga sektor aktivlarining 90 foizdan ortig'ini qamrab oluvchi va tahlil davrining barcha yillarida faoliyat yuritgan 20 ta bank kiritildi. Natijada 100 ta bank-yil kuzatuidan iborat balanslashgan panel shakllantirildi.

Kapitallashuv darajasi ko'rsatkichi sifatida o'z kapitalining jami aktivlarga nisbati (leverage tipidagi koeffitsient) qabul qilindi:

$$CAP(i,t) = E(i,t) / A(i,t) \times 100 \%,$$

Bu yerda **E** — i-bankning t-yil oxiridagi o'z kapitali; **A** — jami aktivlari. Ushbu ko'rsatkich tartibga soluvchi kapital yetariligi koeffitsientidan farq qiladi, chunki u aktivlarni risk bo'yicha tortmaydi; ayni paytda, u banklararo taqqoslash uchun qulay va ochiq manbalar asosida hisoblanadi.

Rentabellik ko'rsatkichlari an'anaviy tarzda hisoblandi: **ROA = sof foyda / aktivlar**, **ROE = sof foyda / o'z kapitali**. Daromad barqarorligini o'lchash uchun aktivlar rentabelligining uch yillik siljuvchi standart chetlanishi va uning asosidagi barqarorlik indeksi qo'llanildi:

$$IS(i,t) = 1 / (1 + \sigma_{ROA}(i,t)),$$

Bu yerda σ_{ROA} — i-bank uchun t–2 dan t-yilgacha bo'lgan davrdagi ROAning standart chetlanishi. Indeks (0; 1] oralig'ida qiymat qabul qiladi: uning birga yaqinlashuvi daromadlarning yuqori barqarorligini bildiradi. Uch yillik oyna qo'llanilganligi sababli regressiya baholari 2022–2024-yillar uchun, ya'ni 60 ta kuzatuv asosida olindi.

Kapital o'sishining manbalarini ajratish uchun quyidagi ko'rsatkichlar hisoblandi. Ichki kapitallashuv koeffitsienti **ICG(i,t) = NP(i,t) / E(i,t–1) × 100 %** sof foyda hisobidan kapitalning potensial o'sish sur'atini ifodalaydi. Tashqi manbalar hissasi **EXT(i,t) = [ΔE(i,t) – NP(i,t)] / E(i,t–1) × 100 %** kapitaldagi o'zgarishning foyda bilan izohlanmaydigan qismini (ustav kapitalini to'ldirish, aksiyadorlar inyeksiyalari, qayta baholash) aks ettiradi. Kesimli tahlil uchun esa butun davr bo'yicha kapital o'sishida ichki manbalar ulushi **INT(i) = ΣNP / ΣΔE × 100 %** ko'rsatkichi hisoblandi; uning 100 foizdan yuqori qiymati bank foydasining bir qismi dividend sifatida taqsimlanganini yoki kapitalning boshqa moddolari kamayganini bildiradi.

Nazorat o'zgaruvchilari sifatida bank hajmi (aktivlar logarifmi, **lnA**) va aktivlarning yillik o'sish sur'ati (**GA**) kiritildi. Baholash uchun quyidagi tenglamalar qo'llanildi:

$$(1) CAP(i,t) = b_0 + b_1 IS(i,t) + b_2 ROA(i,t) + b_3 lnA(i,t) + b_4 GA(i,t) + e(i,t)$$

$$(2) dCAP(i,t) = a_0 + a_1 IS(i,t) + a_2 ROA(i,t) + a_3 lnA(i,t) + a_4 GA(i,t) + u(i,t)$$

$$(3) INT(i) = g_0 + g_1 IS(i) + g_2 lnA(i) + g_3 GA(i) + v(i)$$

(1) va (2)-modellar panel ma'lumotlar asosida, (3)-model esa 20 ta bank bo'yicha kesimli (cross-section) ma'lumotlar asosida baholandi. Baholash eng kichik kvadratlar usulida, geteroskedastiklikka chidamli (HC1) standart xatolar bilan amalga oshirildi; qo'shimcha ravishda, bank effektlari kiritilgan qat'iy effektlar modeli ham baholandi. Hisob-kitoblar Python muhitida bajarildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlilni sektor darajasidagi umumiy tendensiyalardan boshlaymiz. 1-jadval tanlab olingan 20 ta bank bo'yicha jamlangan ko'rsatkichlar dinamikasini aks ettiradi.


1-jadval
20 ta bank bo'yicha jamlangan ko'rsatkichlar dinamikasi

Ko'rsatkich	2020	2021	2022	2023	2024
Aktivlar, trln. so'm	343,6	415,3	520,8	608,2	707,0
O'z kapitali, trln. so'm	54,0	66,1	74,2	89,5	102,8
Sof foyda, trln. so'm	5,28	3,51	9,22	11,74	8,81
Kapitallashuv darajasi, %	15,72	15,93	14,25	14,72	14,54
ROA, %	1,54	0,85	1,77	1,93	1,25
ROE, %	9,77	5,31	12,42	13,11	8,57
Kapital o'sishida ichki manbalar ulushi, %	-	29,0	114,3	76,6	66,4



Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, besh yil ichida namunadagi banklarning jami aktivlari 2,06 barobar, o'z kapitali esa 1,90 barobar oshgan. Kapitalning aktivlarga nisbatan sekinroq o'sishi natijasida kapitallashuv darajasi 15,72 foizdan 14,54 foizga, ya'ni 1,18 foiz punktga pasaygan. Bu pasayish tanqidiy emas, biroq u kapital o'sishining kreditlash faolligi ortidan yetib bormayotganini ko'rsatadi.

Alohida e'tiborni kapital o'sishida ichki manbalar ulushining dinamikasi tortadi. 2022-yilda banklarning sof foydasi kapital o'sishidan ham yuqori bo'lgan (114,3 foiz), ya'ni o'sish to'liq foyda hisobidan ta'minlangan. 2023-yilda bu ko'rsatkich 76,6 foizga, 2024-yilda esa 66,4 foizga pasaygan. Bu shuni anglatadiki, so'nggi ikki yilda kapital o'sishining uchdan bir qismidan ko'prog'i tashqi manbalar — aksiyadorlar va davlat tomonidan kiritilgan mablag'lar hisobiga to'g'ri kelmoqda. Bunday tendensiya 2024-yilda sektor sof foydasining 24,9 foizga qisqarishi bilan ham bog'liq.



1-rasm. Namunadagi banklar bo'yicha kapitallashuv darajasi va rentabellik dinamikasi, %

2-jadvalda regressiya baholashida ishlatilgan namunaning (2022–2024-yillar, 60 ta kuzatuv) tavsifiy statistikasi keltirilgan.

2-jadval
Baholash namunasining tavsifiy statistikasi (N = 60)

O'zgaruvchi	N	O'rtacha	St. chetlanish	Min.	Maks.
CAP - kapitallashuv darajasi, %	60	15,89	4,61	9,01	28,55
IS - daromad barqarorligi indeksi	60	0,602	0,205	0,124	0,945
sigma_ROA - ROA volatilligi, %	60	1,07	1,43	0,06	7,05
ROA, %	60	2,31	2,75	-7,24	8,47
ROE, %	60	15,38	16,26	-47,99	41,46
ICG - ichki kapitallashuv, %	60	21,37	22,89	-43,31	72,54
EXT - tashqi manbalar hissasi, %	60	6,37	25,44	-12,50	125,85
GA - aktivlar o'sishi, %	60	30,16	27,53	-6,25	125,40

Namunada banklararo tafovutlar sezilarli: kapitallashuv darajasi 9,01 foizdan 28,55 foizgacha, ROA volatilligi esa 0,06 dan 7,05 foiz punktga o'zgaradi. Bu tafovutlar kapitallashuv va daromad barqarorligi o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilish uchun yetarli o'zgaruvchanlikni ta'minlaydi.



3-jadvalda banklar daromad barqarorligi indeksining kamayib borish tartibida joylashtirilgan holda, ularning asosiy ko'rsatkichlari keltirilgan.


3-jadval

Banklar kesimida daromad barqarorligi va kapitallashuv ko'rsatkichlari (2020–2024-yillar o'rtachasi)

Bank	CAP, %	ROA, %	sigma_ROA	IS	Ichki manbalar ulushi, %
Asakabank	12,99	0,28	0,27	0,79	23,0
Invest Finance Bank	12,70	2,42	0,30	0,77	106,7
Ipak Yo'li	16,20	3,89	0,32	0,76	103,8
Sanoatqurilishbank	12,52	1,40	0,34	0,75	114,5
Milliy bank	15,08	1,37	0,37	0,73	137,0
Agrobank	18,52	0,84	0,44	0,69	26,0
Turonbank	13,74	0,63	0,48	0,67	33,2
Orient Finans	19,05	4,77	0,51	0,66	116,1
Tenge bank	24,55	0,88	0,69	0,59	15,3
Trastbank	20,99	7,28	0,78	0,56	126,9
Davr-bank	15,95	5,24	0,79	0,56	101,0
Kapitalbank	10,31	2,84	0,91	0,52	96,9
Hamkorbank	16,18	4,39	1,00	0,50	103,5
Ipoteka-bank	13,86	1,42	1,14	0,47	79,3
Aloqabank	14,70	1,79	1,23	0,45	74,9
Asia Alliance Bank	11,83	3,22	1,54	0,39	119,1
KDB Bank Uzbekistan	12,72	2,96	1,96	0,34	107,6
Mikrokreditbank	18,31	-1,13	3,43	0,23	-88,5
Xalq banki	17,77	-0,99	4,05	0,20	-53,1
TBC Bank	41,85	-5,16	7,30	0,12	5,6

Jadvaldan ikkita muhim xulosa kelib chiqadi. Birinchidan, daromad barqarorligi va kapitallashuv darajasi o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri korrelyatsiya manfiy ($r = -0,456$; $p = 0,043$). Bu ilk qarashda gipotezaga zid ko'rinadi. Biroq bog'liqlikning manfiyligi tarkibiy sabab bilan izohlanadi: eng yuqori kapitallashuv darajasiga ega banklar — TBC Bank (41,9 foiz), Tenge Bank (24,6 foiz) — bozorga nisbatan yaqinda kirgan, hali barqaror foyda oqimini shakllantirmagan, kapitali esa asosan xorijiy aksiyadorlarning inyeksiyalari hisobidan to'ldirilgan banklardir. Ularda yuqori kapitallashuv daromad barqarorligining natijasi emas, balki uning yo'qligini qoplash vositasidir.

Ikkinchidan, daromad barqarorligi va kapital o'sishida ichki manbalar ulushi o'rtasidagi bog'liqlik ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli ($r = 0,488$; $p = 0,029$). Bu bog'liqlik 2-rasmda vizual tarzda keltirilgan.



2-rasm. Daromad barqarorligi indeksi va kapital o'sishida ichki manbalar ulushi o'rtasidagi bog'liqlik

Grafikda daromadlari eng yuqori volatillikka ega banklar (Xalq banki, Mikrokreditbank, TBC Bank) aniq



ajralib turadi: ularda ichki manbalar ulushi manfiy yoki nolga yaqin, ya'ni kapital o'sishi butunlay tashqi resurslar hisobidan ta'minlangan. Bu banklar tahlil davrida yirik zararlarni qayd etgan va ularning kapitali davlat yoki bosh kompaniya tomonidan to'ldirilgan.

4-jadvalda banklar daromad barqarorligi indeksi bo'yicha uchta teng guruhga ajratilgan holda solishtirildi.

4-jadval
Daromad barqarorligi guruhlariga bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlar (2022–2024-yillar)

Guruh	IS	sigma_ROA	CAP, %	ROA, %	ICG, %	EXT, %
I guruh (past barqarorlik)	0,37	2,35	17,24	2,25	25,4	16,5
II guruh (o'rtacha)	0,63	0,60	15,71	3,29	26,6	-3,2
III guruh (yuqori barqarorlik)	0,81	0,26	14,72	1,39	12,1	5,8

Guruhlar bo'yicha taqqoslash muhim nozik jihatni ochib beradi. Tashqi manbalarga bog'liqlik past barqarorlikka ega I guruhda eng yuqori (EXT = 16,5 foiz), o'rtacha barqarorlikdagi II guruhda esa manfiy qiymatga ega (-3,2 foiz), ya'ni bu guruh banklari kapitalini foyda hisobidan mustaqil ravishda oshirib, hatto dividend to'lash imkoniyatiga ega bo'lgan. Biroq eng yuqori barqarorlikka ega III guruhda ichki kapitallashuv sur'ati eng past (12,1 foiz) bo'lib chiqdi. Buning sababi shundaki, bu guruhga asosan yirik davlat banklari — Asakabank, Agrobank, Turonbank kiradi. Ularda daromadlar haqiqatan ham barqaror, biroq bu "past darajadagi barqarorlik"dir: ROA ko'rsatkichi 0,28–0,84 foiz oralig'ida bo'lib, sektor o'rtachasidan bir necha barobar past. Natijada ularda kapital o'sishining 23–33 foizigina foyda hisobidan ta'minlangan.

Ushbu tahlil natijalari 5-jadvalda keltirilgan regressiya baholari bilan tasdiqlanadi.

5-jadval
Regressiya tahlili natijalari

O'zgaruvchi	(1) CAP, panel OLS	(2) dCAP, panel OLS	(3) CAP, qat'iy effektlar	(4) INT, kesimli OLS
IS	-4,290* (2,358)	-2,522* (1,531)	-2,515 (3,012)	154,129** (76,521)
ROA	-0,051 (0,259)	0,544*** (0,169)	0,624*** (0,214)	-
lnA	-1,603** (0,734)	-0,022 (0,497)	-3,247** (1,538)	-14,568 (15,565)
GA	0,013 (0,029)	-0,048*** (0,015)	-0,047*** (0,011)	-0,141 (0,339)
Konstanta	34,051*** (8,080)	1,467 (5,625)	56,075*** (18,433)	132,704 (162,998)
Kuzatuvlar soni	60	60	60	20
R-kvadrat	0,225	0,408	0,877	0,283
Tuzatilgan R-kvadrat	0,169	0,365	0,799	0,148

Izoh: qavs ichida geteroskedastiklikka chidamli (HC1) standart xatolar. - 1%, - 5%, - 10% darajada ahamiyatli.

Birinci modelda daromad barqarorligi indeksi oldidagi koeffitsient manfiy (-4,290) va faqat 10 foiz darajada ahamiyatli. Bank hajmi oldidagi koeffitsient manfiy va ahamiyatli (-1,603; p = 0,029): yirikroq banklar nisbatan past kapitallashuv darajasida ishlaydi, bu masshtab effekti va ularning tizimli ahamiyatlili bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shunday qilib, H1 gipotezasi — daromad barqarorligining kapitallashuv darajasiga bevosita ijobiy ta'siri — qo'llab-quvvatlanmadi.

Ikkinchi va uchinchi modellar kapitallashuv darajasidagi o'zgarishning asosiy harakatlantiruvchi kuchlarini aniqlaydi. Aktivlar rentabelligining koeffitsienti ijobiy va 1 foiz darajada ahamiyatli (dCAP modelida 0,544; qat'iy



effektlar modelida 0,624): ROAning bir foiz punktga oshishi kapitallashuv darajasining taxminan 0,54–0,62 foiz punktga o'sishi bilan birga keladi. Aktivlar o'sishi oldidagi koeffitsient esa manfiy va yuqori darajada ahamiyatli ($-0,047...-0,048$): aktivlarning har 10 foizga jadal kengayishi, agar u foyda bilan qo'llab-quvvatlanmasa, kapitallashuv darajasini taxminan 0,5 foiz punktga pasaytiradi. Bu natija H3 gipotezasini tasdiqlaydi va bank kapitalining "suyultirilishi" (dilution) samarasini miqdoriy jihatdan ko'rsatadi. Qat'iy effektlar modelining aniqlash darajasi yuqori ($R\text{-kvadrat} = 0,877$), bu kapitallashuv darajasidagi tafovutlarning katta qismi banklarning individual, vaqt bo'yicha o'zgarmas xususiyatlari — biznes modeli, mulkchilik shakli, mijozlar bazasi — bilan izohlanishini bildiradi.

To'rtinchi model esa tadqiqotning markaziy natijasini beradi: daromad barqarorligi indeksining kapital o'sishida ichki manbalar ulushiga ta'siri ijobiy va 5 foiz darajada ahamiyatli ($154,129$; $p = 0,044$). Iqtisodiy ma'noda, bu barqarorlik indeksining 0,1 birlikka oshishi kapital o'sishida foyda hisobiga to'g'ri keladigan ulushni o'rtacha 15,4 foiz punktga oshirishini anglatadi. Shunday qilib, H2 gipotezasi tasdiqlandi.

Natijalarni umumlashtirsak, daromadlar barqarorligi kapitallashuvning miqdoriy darajasini emas, balki uning sifat tavsifini — o'z-o'zini moliyalashtirish qobiliyatini belgilaydi. Ayni paytda, modelga rentabellik darajasi kiritilganda barqarorlik koeffitsientining ahamiyatligi yo'qoladi va ROA ustunlik qiladi. Bu barqarorlik va rentabellikning o'zaro to'ldiruvchi shartlar ekanligini ko'rsatadi: yetarli daromad darajasi bilan qo'llab-quvvatlanmagan barqarorlik ichki kapitallashuvni ta'minlay olmaydi. Tadqiqotning cheklovlar sifatida namuna hajmining nisbatan kichikligi, kapitallashuvning tartibga soluvchi koeffitsient o'rniga balans ko'rsatkichi orqali o'lganligi va daromadlar tarkibi (foizli va foizsiz daromadlar nisbati) bo'yicha ma'lumotlarning qamrab olinmaganligini qayd etish lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot O'zbekiston tijorat banklarida daromadlar barqarorligi va kapitallashuv o'rtasidagi bog'liqlik xususida quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon beradi.

Birinchidan, tahlil davrida namunadagi banklarning kapitallashuv darajasi 15,72 foizdan 14,54 foizga pasaygan. Bu tartibga soluvchi me'yorlardan yuqori bo'lsa-da, kapitalning aktivlarga nisbatan sekinroq o'sishi tendensiyasi saqlanib qolmoqda.

Ikkinchidan, kapital o'sishida ichki manbalar ulushi 2022-yildagi 114,3 foizdan 2024-yilda 66,4 foizga qisqargan. Bu sektor kapitallashuvda tashqi kapital manbalarining roli ortganini ko'rsatadi hamda o'rta muddatli istiqbolda ichki kapitallashuv manbalarini yanada mustahkamlash zarurligini anglatadi.

Uchinchidan, daromadlar barqarorligining kapitallashuv darajasiga bevosita ta'siri tasdiqlanmadi; aksincha, statistik bog'liqlik manfiy bo'lib chiqdi. Buning sababi — eng yuqori kapitallashuv ko'rsatkichlari barqaror foyda oqimi hali to'liq shakllanmagan, kapitali tashqi manbalar hisobidan to'ldirilgan yosh banklarga tegishli ekanligidir. Bu kapitallashuv darajasini yakka ko'rsatkich sifatida baholash yetarli emasligini bildiradi.

To'rtinchidan, daromadlar barqarorligi kapital o'sishida ichki manbalar ulushiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi: barqarorlik indeksining 0,1 birlikka oshishi bu ulushni o'rtacha 15,4 foiz punktga oshiradi. Demak, barqaror daromad kapitallashuvning miqdorini emas, balki uning sifati va mustaqilligini belgilaydi.

Beshinchidan, kapitallashuv darajasidagi o'zgarish birinchi navbatda rentabellik (ROA) va aktivlar o'sish sur'ati o'rtasidagi muvozanat bilan belgilanadi. Aktivlarning foyda bilan yetarli darajada qo'llab-quvvatlanmagan jadal o'sishi kapitallashuv darajasiga pasaytiruvchi ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Oltinchidan, yuqori barqarorlikka ega davlat banklari guruhida "past darajadagi barqarorlik" holati kuzatiladi: daromadlar barqaror bo'lsa-da, ularning mavjud darajasi ichki kapitallashuv imkoniyatlarini yanada kengaytirishni talab etadi.

Shu asosda quyidagi takliflar ilgari suriladi. Birinchidan, banklarning kapitallashuv siyosatini baholashda kapital yetariligi koeffitsienti bilan bir qatorda, kapital o'sishida ichki manbalar ulushi va ichki kapitallashuv koeffitsienti ko'rsatkichlarini nazorat ko'rsatkichlari sifatida qo'llash maqsadga muvofiq. Ikkinchidan, davlat ulushi yuqori banklarda kapitalni shakllantirish manbalarini bosqichma-bosqich diversifikatsiya qilish, ichki rentabellikni oshirish va o'z-o'zini moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadga muvofiq; buning uchun bank rahbariyatining samaradorlik ko'rsatkichlariga (KPI) ichki kapitallashuv sur'atini kiritish mumkin. Uchinchidan, daromadlar barqarorligini oshirish maqsadida banklarda daromadlar tarkibini diversifikatsiyalash — komissiya daromadlari, xazina operatsiyalari va raqamli xizmatlar ulushini oshirish — bo'yicha aniq maqsadli ko'rsatkichlar belgilanishi zarur. To'rtinchidan, kredit portfelining jadal o'sishi kapital rejasi bilan bog'lanishi, ya'ni har bir bankda o'sish sur'atining kapitallashuv darajasiga ta'sirini baholovchi kapital rejalashtirish modeli joriy etilishi lozim. Beshinchidan, dividend siyosati kapitallashuv maqsadlari bilan uyg'unlashtirilishi, ayniqsa kapital yetariligi buferi past bo'lgan banklarda foydani kapitallashtirish ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lishi kerak.



Keyingi tadqiqotlarda daromadlar tarkibi (foizli va foizsiz daromadlar nisbati), kredit portfelining sifati (NPL ulushi) va makroiqtisodiy omillarni hisobga oluvchi kengaytirilgan modellarni qo'llash, shuningdek, dinamik panel usullaridan foydalanish natijalarning ishonchliligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF–5992-son Farmoni. **2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida** [Elektron manba]. – Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (LexUZ). – Murojaat sanasi: 30.08.2026. LexUZdagi rasmiy matn
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015-yil 13-iyundagi 14/3-son qarori bilan tasdiqlangan **“Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risida”gi Nizom** (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2015-yil 6-iyulda 2693-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan) [Elektron manba]. – Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (LexUZ). – Murojaat sanasi: 30.08.2026. LexUZdagi rasmiy matn
3. Basel Committee on Banking Supervision. **Basel III: A Global Regulatory Framework for More Resilient Banks and Banking Systems**. – Basel: Bank for International Settlements, 2011. – 77 p.
4. Modigliani F., Miller M. H. The Cost of Capital, Corporation Finance and the Theory of Investment // **The American Economic Review**. – 1958. – Vol. 48, No. 3. – P. 261–297.
5. Myers S. C., Majluf N. S. Corporate Financing and Investment Decisions When Firms Have Information That Investors Do Not Have // **Journal of Financial Economics**. – 1984. – Vol. 13, No. 2. – P. 187–221.
6. Diamond D. W., Rajan R. G. A Theory of Bank Capital // **The Journal of Finance**. – 2000. – Vol. 55, No. 6. – P. 2431–2465.
7. Berger A. N., Herring R. J., Szegö G. P. The Role of Capital in Financial Institutions // **Journal of Banking & Finance**. – 1995. – Vol. 19, No. 3–4. – P. 393–430.
8. Flannery M. J., Rangan K. P. What Caused the Bank Capital Build-Up of the 1990s? // **Review of Finance**. – 2008. – Vol. 12, No. 2. – P. 391–429.
9. Berger A. N., DeYoung R., Flannery M. J., Lee D., Oztekin O. How Do Large Banking Organizations Manage Their Capital Ratios? // **Journal of Financial Services Research**. – 2008. – Vol. 34. – P. 123–149.
10. Gropp R., Heider F. The Determinants of Bank Capital Structure // **Review of Finance**. – 2010. – Vol. 14, No. 4. – P. 587–622.
11. DeYoung R., Roland K. P. Product Mix and Earnings Volatility at Commercial Banks: Evidence from a Degree of Total Leverage Model // **Journal of Financial Intermediation**. – 2001. – Vol. 10, No. 1. – P. 54–84.
12. Stiroh K. J. Diversification in Banking: Is Noninterest Income the Answer? // **Journal of Money, Credit and Banking**. – 2004. – Vol. 36, No. 5. – P. 853–882.
13. Köhler M. Which Banks Are More Risky? The Impact of Business Models on Bank Stability // **Journal of Financial Stability**. – 2015. – Vol. 16. – P. 195–212.
14. Demirgüç-Kunt A., Huizinga H. Bank Activity and Funding Strategies: The Impact on Risk and Returns // **Journal of Financial Economics**. – 2010. – Vol. 98, No. 3. – P. 626–650.
15. Laeven L., Levine R. Bank Governance, Regulation and Risk Taking // **Journal of Financial Economics**. – 2009. – Vol. 93, No. 2. – P. 259–275.
16. Beltratti A., Stulz R. M. The Credit Crisis Around the Globe: Why Did Some Banks Perform Better? // **Journal of Financial Economics**. – 2012. – Vol. 105, No. 1. – P. 1–17.
17. Abdullayeva Sh. Z. **Bank ishi: darslik**. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2017. – 732 b.
18. “Ahbor-Reyting” reyting agentligi. **Bank sektorining analitik sharhi**. – Toshkent, 2024–2025. – № 74; № 78.
19. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. **Bank tizimi faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari** [Elektron manba]. – O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy veb-sayti. – Murojaat sanasi: 30.08.2026. Markaziy bankning rasmiy statistikasi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 8/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>